

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**TARIXIY REKONSTRUKSIYA MASALALARI
FANNING
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 220 000 –Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
70220401-Arxeologiya
70220301- Tarix
70220303- Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy
tadqiqot usullari
70220601- Etnografiya, etnologiya va antropologiya

Toshkent – 2024

| Fan/Modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS – kreditlar | |
|--|----------------------------------|-------------------------|---------------------|--|
| TRM1106 | 2024-2025 | 1 | 6 | |
| Fan/Modul turi | Talim tili | Haftadagi dars soatlari | | |
| Majoriy | O'zbek | 6 | | |
| Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) | |
| 1. | 54 | 126 | 180 | |
| 2. | | | | |
| Tartibiy rekonstruksiya masalalari | | | | |
| 1. Fanning mazmuni | | | | |
| <p>Fanni o'qitishdan maqsad - "Tarixiy rekonstruksiya masalalari" fanning predmeti, mazmun – mohiyati to'g'risida magistratlarga umumiy tushuncha berish, fanga oid ma'lumotlar, yangi nazariyalarni o'rganishda ilmiy jihatdan yondashish, tadqiqot ko'lamining o'sishi va bilimlar doirasining kengayib borishini aniqlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish usullarini o'rganishning ahamiyatini ochib berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - magistratlarga arxeologik materiallar tarixiy manba sifatida o'rni, ularni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish ahamiyati, ijtimoiy – iqtisodiy tizimning rekonstruksiyasi etnomadaniy jarayonlarni tiklash, arxeologiyada tarixiy rekonstruksiyaga doir ilmiy qarashlar va yondashuvlar haqida magistratlarga chuqur bilim berishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu: Fanning predmeti maqsadi va vazifasi</p> <p>Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi, arxeologik materiallar – tarixiy manba sifatida. Ularni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish ahamiyati. Arxeologiyadagi ijtimoiy – iqtisodiy tadqiqotlar. Arxeologik ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish usullari, etnomadaniy jarayonlarni qayta tiklash. Ijtimoiy tizimning rekonstruksiyasi. Sivilizatsiya va davlatchilik tarixini o'rganish usullari. Fanda tarixiy rekonstruksiyaga oid ilmiy qarashlar va yondashuvlar.</p> <p>2-mavzu: Qadimgi jamiyatlar xo'jaligini o'rganish muammolari</p> <p>Qadimgi jamiyatlar xo'jaligini o'rganishdagi tizimli yondashuv, o'zlashtiruvchi xo'jaliklar (termachilik, ovchilik, baliqchilik) tarixiga oid arxeologik topilmalarning mazmun mohiyati. Ishlab chiqarish xo'jaliklarini (dehqonchilik, chorvachilik) o'rganish usullari. Amaliy arxeologiya usullaridan foydalanish.</p> <p>3-mavzu: Arxeologik ma'lumotlar asosida xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilik turlarini o'rganish usullari.</p> <p>Arxeologiyada xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilikning belgilari. Ilk ziroakorlar jamiyatida jamoatchilik hunarmandchilikning shakllanishi.</p> | | | | |

| |
|---|
| <p>Hunar kasbini dehqonchilikdan ajralib chiqishining texnologik shart – sharoitlari. Ixtisoslashgan hunarmandchilikning rivojlanishi.</p> <p>4-mavzu: Ayirboshlash va savdo – sotiqning tarixiy rekonstruksiyasi</p> <p>O'zaro mahsulot ayirboshlashning vujudga kelishi. Ilk ayirboshlash shakllari. Qadimgi aloqa yo'llarining rivojlanishi. Oziq – ovqat, hunarmandchilik buyumlari va xom-aslyo bilan ayirboshlash zaruriyati. Savdo – sotiqning hunarmandchilikdan ajralib chiqishi.</p> <p>5-mavzu: Paleodemografiya va qadimgi iqtisod masalalari</p> <p>Paleodemografiyani qayta tiklash manbalari. Arxeologiya ma'lumotlari va paleodemografiya masalasi. Manzilgohlar, uy-joylarni o'rganishda aholining taxminiy miqdorini aniqlash usullari. Iqtisod tarixini umumlashtirish va tiklash muammolari, asosiy yondashuvlar.</p> <p>6-mavzu: Turar joylar va ijtimoiy taraqqiyot tarixining rekonstruksiyasi</p> <p>Qadimgi ijtimoiy tizim, turar joylarning funksiyasi va ijtimoiy belgilari. Ilk makonlar, qadimgi jamoatlarning turar joylari. Paxsa – xom g'isht binokorligining paydo bo'lishi, katta patrarxal uy-joylarning ijtimoiy mohiyati. Uy – joylarning evolutsiyasi va ularning ijtimoiy taraqqiyot bilan aloqadorligi. Jamiyat tabaqalanishining uy-joylar tashkili aks etilishi. Asosiy ilmiy qarashlar va yondashuvlar. Ijtimoiy tarixning arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiyasi.</p> <p>7-mavzu: Dafn marosimlarini o'rganish va qadimgi jamiyatlar ijtimoiy – iqtisodiy tarixini umumlashtirish usullari</p> <p>Dafn yodgorliklari (qadimgi qabrlar, mozor – qo'rg'onlar) jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning aks – sadosi obyekt sifatida. Dafn marosimlari, odatlari va qabrlarda topilgan buyumlarning tarixiy rekonstruksiyasi jarayonidagi ahamiyati. Tarixiy antropologiya usullari. Qadimgi e'tiqodlar va diniy qarashlarning o'rganish muammolari.</p> <p>8-mavzu: Hayot sharoiti, inson turmush tarzi va madaniyatini tiklash.</p> <p>Tosh davrida ovchilar va termachilar hayoti. Ilk ziroakorlar va chorvadorlar turmush tarzi. Hayvonlar va o'simliklarning xonaklashitirish jahon o'choqlari. Inson bilimlari, ko'nikmalari, va dunyog qarashining rivojlanishi. Ma'naviy madaniyatning taraqqiyoti, e'tiqodlar va tasviriy san'at.</p> <p>9-mavzu: Ilk shaharlar va davlatlarning arxeologik belgilari.</p> <p>Ilk shaharlar va davlatlarning arxeologik belgilari. Masalaga tizimli yondashuv. Ilk shaharlar va davlatlar tarixiga doir arxeologiyada ilmiy axborot. Uy – qo'rg'onlar va shahar harobalaridan topilgan ashyolarning ahamiyati.</p> |
|---|

Arxeologik tadqiqotlar natijalaridan davlatchilik tarixini o'rganishda foydalanish. Markaziy Osiyoda davlatchilik va boshqaruv tizimining kelib chiqishi xususiyatlarining rekonstruksiya natijalari.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ixtisoslashgan hunarmandchilikning rivojlanishi.
2. Ayirboshlash va savdo-sotiqning tarixiy rekonstruksiya.
3. Arxeologiya ma'lumotlari va paleodemografiya masalasi.
4. Uy-joylar, ularning funktsiyasi va ijtimoiy belgilari.
5. Ijtimoiy taraqqiyot tarixining arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiya.
6. Uy-joylarning evolyutsiyasi va ularning ijtimoiy taraqqiyot bilan aloqadorligi.
7. Arxeologik ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish usullari.
8. Qadimgi e'tiqodlar va diniy qarashlarni o'rganish muammolari.
9. Arxeologik tadqiqotlar natijalaridan davlatchilik tarixini o'rganishda foydalanish.

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sivilizatsiya va davlatchilik tarixini o'rganish usullari.
 2. Arxeologiyada tarixiy rekonstruksiya o'ldirilmagan qarashlar va yondashuvlar.
 3. Arxeologiyada xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilikning belgilari.
 4. Qadimgi iqtisodiy munosabatlar jarayonlarini o'rganishdagi ilmiy qarashlar.
 5. Iqtisodiy tarixni umumlashtirish va tiklash muammolari.
 6. Uy-joylarning evolyutsiyasi va ularning ijtimoiy taraqqiyot bilan aloqadorligi.
 7. Qadimgi tush davridagi hayot sharoitining rekonstruksiya.
 8. Migratsiyalar va madaniy aloqalar rekonstruksiya.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar

Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:

- arxeologik ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish usullari, arxeologiyada ijtimoiy – iqtisodiy tadqiqotlar, moddiy va ma'naviy

madaniyatni tiklash, qadimgi jamiyatlar hunarmandchilik xo'jaligini o'rganishdagi tizimli yondashuv, sivilizatsiya va davlatchilik tarixini o'rganish usullari, arxeologiyada tarixiy rekonstruksiyaning ahamiyati haqida *tasavvurga ega bo'lishi kerak (bilm)*

- hayot sharoiti, inson turmush tarzi va madaniyatni tiklash, ayirboshlash va savdo-sotiqning tarixiy rekonstruksiya paleodemografiya va iqtisod, ijtimoiy taraqqiyot tarixining arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiya, ilk shaharlar va davlatlarning arxeologik belgilari mavzularini o'rganish natijasida, arxeologiyada tarixiy rekonstruksiya masalalariga oid mavjud ilmiy qarashlar muammolari bilishi va ulardan foydalana olishi; *ko'nikmalarga ega bo'lish kerak (ko'nikma)*
- fan doirasidagi o'quv ilmiy axborotini, muayyan ma'lumotlarni xronologik jihatdan ajratib qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish *malakalariga ega bo'lish kerak (malaka)*

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- Ma'ruzalar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;

VII. Kreditlarni olish uchun magistrlar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada, yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ismini topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Sagdullayev A.S. Tarixiy rekonstruksiya masalalari (o'quv qo'llanma) – Toshkent. 2024. b
2. Мартынов А.И. Археология. – М.: Юрайт, 2022. – 367 с.
3. Мирзиев Ш.М. Хозрини замон ва Янги Ўзбекистон. “O'zbekiston” nashriyoti, 2024. – 560 b.
4. Мирзиев Ш. М. Yangi O'zbekistonda erkin va farqon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. – 408 b.
5. Мирзиев Ш.М. Янги Ўзбекистонда тараккият стратегияси асосида демократик илохотлар йўлини катъий давом эттирмаз. 6-жилд. – Тошкент: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. – 536 b.
6. Мирзиев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2021. – 464 b.
7. Сагдуллаева А.С., Холматов Н.Ў. ва бошқ. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. Т.; Университет, 2020.
8. William H. Stiebing Jr., Susan N. Helff. Ancient Near Eastern History and

| | | | |
|---|--|---|---|
| <p>Culture. – New York: Routledge, 2023. – 546 p.</p> <p>9. Бокнев А. Шайдуллаев А., Йўлдошева Э. Оке цивилизацияси.-Т: Улғи nashr, 2015.</p> <p>10. Ринелдзэ, Э.В., Санлов А.Х., Абдуллаев Е. Ўзбекистон цивилизацияси : давлатчилик ва хукук тарихидан лавҳалар. – Т: “Адолат”, 2001.</p> <p>11. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тўзуми ва илк давлатчилик тарихишунослиги. Т.: Академйўа, 2009.</p> <p>12. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув кўланма, Т., 2008.</p> <p>13. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Т.: “Академйўа” 2008.</p> <p>14. Ўзбекистон тарихи. Биринчи китоб.- Тошкент, 2020.</p> <p>15. Сагдуллаев А.С ва бoшқалар. О'збекистон тарихи (1-китоб). дарслик. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2021. – 624 б.</p> <p>16. Sarganidi V. Margiana and Protozoroastrianism. - Athens. 1998.</p> <p>17. Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи. Т., 2017.</p> <p>18. India and Central Asia (Pre – Islamic period). – Tashkent, 2000.</p> <p>19. Binford L.S. Archeological Perspectives // Man's Imprint from the Past. – Boston, 1971.</p> <p>20. Clark J.D. The Prehistory of Africa. – London, 1970.</p> <p style="text-align: center;">Аxbopот тaмбaлaри</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz 2. www.palib.uz 3. www.ziyouc.com 4. www.lex.uz 5. www.google.ru 6. https://urait.ru/ 7. www.mlr.ru 8. archaeology.uz | <p>7. O'quv dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil ____ - ____-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.</p> | <p>8. Fan/modul uchun mas'ul: Sagdullayev A.S. - "Arxeologiya" kafedrası t.f.d. professor akademik</p> | <p>9. Taqirizchilar: Xalidova R.E Islom Karimov nomidagi TDTU O'zbekiston tarixi kafedrası mudiri, t.f.d Mavlanov O'.M Arxeologiya kafedrası professorı t.f.d.</p> |
|---|--|---|---|